



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2676

www.ijournal.uz

THE IMPORTANCE OF USING MULTIMEDIA RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Hilola Soatova¹

Jizzakh State Pedagogical University

DOI: [10.5281/zenodo.15342102](https://doi.org/10.5281/zenodo.15342102)

Article History	Abstract
Received: 10.04.2025	This article discusses the effective use of multimedia resources in
Accepted: 05.05.2025	the educational process of primary school students and their role in the educational process.

Keywords: multimedia, information resources, teacher, educational process, professional skills.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International
(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's student at Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV TARBIYA JARAYONIDA MULTIMEDIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

KALIT SO'ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

multimediya, axborot resurslari, pedagog, ta'lif jarayoni, kasbiy mahorat

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lif jarayonida multimediya resurslaridan unumli foydalananish va uning ta'lif jarayonida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi, Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idolar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar mакtabgacha ta'lif tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari joriy qilindi. 1

Bugungi jadallahib borayotgan davrni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Bu jamiyatimizning har bir sohasiga kirib bordi desak adashmaymiz. Shu qatorda ta'lif – tarbiya jarayoniga ham o'zining salmoqli o'rni ega bo'ldi. Hozirgi vaqtida maktablarda axborot texnologiyalaridan keng ko'lamli foydalani layotgan turi multimedia resurslaridir.

Respublikamizda "Multimediali umumta'lif dasturlarini rivojlantirish markazi" electron ta'lif materiallarini yozish, tahrirlash, ularga ishlov berish va davlat ta'lif standartlariga mos turli fanlardan videoroliklar ishlab chiqilmoqdaki bu mahsulotlardan o'quv jarayonlarini tashkil etishda samarali qo'llanib kelinmoqda. Bu esa boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini yanada samarali va mazmunli hamda qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Multimediali electron ta'lif resurslarini yaratish texnologiyalarini amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixo-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish muammolari asosiy o'rinni egallaydi.

Multimedia-kompyuter uchun mo'ljallangan tovush, video va turli animatsiya effektlari jamlanmasidan iborat texnik yoki dasturiy ta'minotdir.

Boshlang'ich sinflar uchun esa dars jarayonini yanada qiziqarli va ularni jalb qila oladigan vosita esa shubxasiz multimedia resurslaridir. Multimedia orqali olingan mbilimlar o'quvchilar ongida uzoq saqlanib, kerakli paytda amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Boshlang'ich sinf larda multimediani qo'llash orqali quyidagi o'qitish samaradorligiga erishishimiz mumkin:

a) O'quvchi bilimlarni o'zlashtirishi majburiy emas, balki o'quvchi o'zi bilmagan holda anglab tushunib oladi;

b) Multimedia vositalari orqali o'quvchi o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlarni xursandchilik bilan qabul qilib oladi, chunki ayni boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshidagi bola rangba-ranglikka o'ch, turli yorqin narsalarni xush ko'radigan vaqtida bo'ladi. Xursandchilik esa o'z navbatida, uni o'quv faniga munosabatini ijobiy tomonga tubdan o'zgartirib yuboradi.

c) O'quvchida o'z navbatida yangicha baholash tizimi kelib chiqadi, ya'ni o'zini-o'zi baholash. Kim ko'p e'tiborli bo'lib darsga qatnashsa, u eng ko'p bilimga ega bo'ladi va darsda yaxshi baholanadi. Ayni boshlang'ich sinf o'quvchilari bahoga kata e'tibor berishadi;

d) O'quvchilar o'zlarini erkin tutishadi, darsga faol qatnashishadi. O'z fikrlariga erk berishdi, mustaqil fikr bildirishga o'zlarini qodir deb bilishadi, ularda qo'rquv, hayajon yo'qoladi;

e) Sinf orasida sog'lom raqobat vujudga keladi. Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari raqobatdosh bo'lib, ularga sinfdoshlaridan o'zib ketish qiziq tuyila boshlaydi.

f) Fanlararo integratsiya paydo bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bir necha sohalarni o'zlashtirish, ular haqida qisqa bo'lsada ma'lumotga ega bo'lish imkoniyati tug'iladi.

Darsda multimediali taqdimotlardan foydalanish o'quv jarayonini boyitadi, samaraliroq qiladi, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Mavzuni o'rganishning istalgan bosqichida taqdimotlardan foydalanish mumkin. Bolalar bu darslarga juda qiziqadi va ularni yaxshi ko'radi. O'ylaymizki, boshlang'ich sinflardayoq bolaga kompyuter qiziqarli, hayajonli ish quroli ekanligini va agar u kompyuterda o'zi biror narsa qilishni o'rgansa, u bunday mashg'ulotlardan zavqlanadi va foyda oladi, deb tushunish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun multimediali electron ta'lif resurslarini yaratishning yuqorida ifodalangan tamoyillari electron ta'lif vositalarini sifatini va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ta'lif jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish albatta o'z samarasini beradi. Ba'zi mulohazalar zamonaviy axborot texnologiyalari o'quvchi ongiga ta'siri borasida tanqidiy mulohazalar yuritishi tabiiy hol. Buning sababi o'quvchilarning qiziquvchanligi, internet va mobil aloqa vositalariga bog'lanib qolishi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda boshlang'ich sinf o'quvchilarda albatta internet olamidan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilari multimedia negizida, shuningdek axborotlashgan jamiyat uchun xos bo'lgan muhim sifat axborotlarni uzatish va uni qabul qilish madaniyati yotadi bu esa shaxs kamolotining darjasini deya aytishimiz mumkin. Yosh qiziquvchi o'quvchilarni davr talabi bo'lgan multimediani oshirish biz pedagoglarning hamda ularning ota onalarining vazifalari hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'lif tizimidan farq qilib

jahon ta'lim standartlariga mos darslarni tashkil qilish mumkin. Dars jaronida turli xildagi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda olingan bilimlarni yanada rivojlantirishga ko'mak beradi. Media orqali tarqalayotgan axborotlarni mustaqil tahlil qilish tanqidiy fikrlash o'z fikriga egalik tashqi ta'sirlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantiradi deb o'ylayman.

Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda,O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonida_2017; PF-4947sonli

2.Ya. Mamatova, S. Sulaymanova O'ZBEKISTON MEDIATA'LIM TARAQQIYOTI YO'LIDA 6- bet 3.Mediata'lism va media madaniyat:nazariyasi va amaliyot 2019

4.<https://lex.uz/uz/docs/-4312785?ONDATE=29.04.2019>

5.https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies

6.https://play.google.com/store/apps/details?id=com.respulikatalimmarkazi.raqa_mlid_arsliklarar

7.https://play.google.com/store/apps/details?id=com.RTM.Onat_2

8.https://play.google.com/store/apps/details?id=com.respulikatalimmarkazi.raqa_mlid_arsliklarar